

Frazeologik birliklarni tarjimasi

Bahromov Javohir Rustam o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Email: baxromov_javohir@jdpu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola Frazeologik birliklarni tarjima nazariyasi va amaliyoti haqida bo'lib, frazeologizmlarning murakkabligi buyicha rus tilshunosи V.V.Vinogradov umumiyl Tilshunoslik miqiyosida frazeologizmlarni o'rganganligi tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье речь идет о теории и практике перевода фразеологических единиц, а также анализируется изучение фразеологии отечественным лингвистом В. В. Виноградовым на уровне общего языкознания с точки зрения сложности фразеологии.

Abstract: This article deals with the theory and practice of translating phraseological units, and also analyzes the study of phraseology by Russian linguist V. V. Vinogradov at the level of general linguistics from the point of view of the complexity of phraseology.

Kalit so'zlar: Frazeologik birliklar, tarjima nazariyasi, stilistik funktsiya, frazeologik chatishmalar, frazeologik birikuv, uzual va okkazional frazeologizmlar.

Ключевые слова: Фразеологизмы, теория перевода, стилистическая функция, фразеологические коллизии, фразеологические сочетания, уникальная и окказиональная фразеология.

Key words: Phraseological units, translation theory, stylistic function, phraseological collisions, phraseological combinations, unique and occasional phraseology.

Bugungi kunda, umumiyl e'tirofga ko'ra, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yuq, albatta. Bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va quyilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va

intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin.

Avvalo shuni ta'kidlash zarurki, bundan 15 yil oldin qabul qilingan, Kadrlar taylorlash milliy dasturi deb nom olgan Ta'lim sohasini isloq qilish dasturi mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning biz tanlagan "o'zbek modeli" – o'z taraqqiyot yulimizning ajralmas tarkibiy qismidir.

Ushbu dastur jiddiy izlanish va tadqiqotlarning, jahondagi taqqiy topgan ilg'or mamlakatlar tajribasini umumlashtirishning natijasi sifatida o'tmishda majburan singdirilgan kommunistik mafkuraning qolip va andozalaridan butunlay voz kechish, odamlarning, birinchi navbatda, unib-o'sib kelayotgan avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, qisqacha aytganda, bu dastur hayotda o'z fikriga, o'zining qarashlari va qat'iy fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan insonlar uchundir.

Asosiy qism

Fraziologik birliklar tarjima nazariyasi va amaliyotining eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Fraziologizmlar murakkabligi quyidagilarga bog'liq: birinchidan bir xil moddiy ma'noga ega bo'lgan so'zlar turli tillarda turli ma'no va stilistik funksiya (vazifa) larni bajaradi, ikkinchidan, bunday so'zlar turli tillarda turli so'zlar bilan birikib keladi. Rus tilshunosi V.V.Vinogradovning umumiyligi tilshunoslik miqyosida e'tirof etilgan tasnifiga ko'ra frazeologizmlar uchta guruxda :

1. Frazeologik chatishmalar (фразеологические сращение): bunday birikmalarning ko'chma ma'nosini ularning tarkibidagi so'zlarga bog'liq bo'lmaydi. Birikmalar (фразеологические единства): bunday birikmalar ham ko'chma ma'noga ega, ammo ko'chma ma'no frazeologizmlar tarkibidagi so'zlarga bog'liq .
2. Frazeologik birikuvlar (фразеологические устойчивые сочетания): bularda tarkibidagi so'zlarning ma'lum bir qismigina ko'chma ma'noga ega, birikmaning ma'nosini tarkibidagi so'zlarga bog'liq. Bular asosan ot bilan fe'lning birikuvi bo'lib, fe'l ko'chma ma'noda, ot to'g'ri ma'noda keladi. Birliklarni ingliz tilida berish juda murakkab vazifa. "O'zining semantik boyligi obrazliligi va yorqinligi kuchi tufayli frazeologiya juda muhim rol o'ynaydi " (V.B.O.) U nutqqa ifodalilik orginallik beradi. Ayniqsa frazeologizmlar og'zaki nutqqa, badiy adabiyotda va siyosiy adabiyotlarda keng qo'llaniladi.

Frazeologizmlar tarjimasida tarjimon uning ma’nosini berishi, uning obrazlilagini ifodalash lozim, ingliz tilida mos ifodani topishi va shu bilan birga frazeologizmlarning stilistik vazifasini ham unutmasligi shart. Ingliz tilida mos obraz mavjud bo’lmagan hollarda tarjimon ”yaqinroq moslikni” topishga urinadi.(11).

Ekvivalentlar to’liq va qisman bo’lishi mumkin. To’liq ekvivalentlar shunday tayyor ekvivalentlarki ular o’zbek tilidagisi bilan ma’nosи, leksik tarkibi, obrazliliги, stilistik bo’yoqdorligi va grammatick tuzulishi bilan mos tushadi;

O’t bilan o’ynamoq – to play with fire;

Vaqti soati yetib keldi – one’s hour has sturk;

Olovsiz tutun bo’lmaydi – there is no smoke without fire;

Ariday mehnat sevar – busy as a bee;

Qisman frazeologizm ekvivalentlarni tarjima qilishi u frazeologizmlarning ma’nosи va obrazlilagini tarjimada qisman yoki to’liqsiz berish degan emas; bu atama ostida shu narsa nazarda tutilganki, taklif etilayotgan ingliz tilidagi ekvivalentlar o’zbek tilidagisi bilan biroz farqlanishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda tarjimon uchun ”frazeologizm birlikni tarjima qilishda birinchi navbatda frazeologizmning obrazini berish muhim, uning til tuzulishini emas”.

Qisman ekvivalentlarni uch guruhga ajratish mumkin; Birinchi guruhga ma’nosи, stilistik bo’yoqdorligi va obrazliliги yaqinroq bo’lgan ammo leksik tarkibi farq qiluvchi frazeologizmlar kiradi;

Oltin tog’ vada qilmoq – to promise wonders, to promise the moon;

O’z uying o’lan to’shaging – East or west home is best.

Birinchi qaldirg’och – the first portent;

Bu obrazlarning ba’zilari antonimik tarjima yordamida tarjima qilinadi, ya’ni salbiy ma’no tarjimon tomonidan ijobjiy konsturuksiya bilan yoki teskarisi, ijobjiy ma’no salbiy konsturuksiya bilan tarjimada beriladi. Masalan: Jo’jani kuzda sanaymiz – Don’t count your chickens before the hatched.

Ikkinchi guruhga ma’nosи obrazlilik, leksik tarkibi va stilistik bo’yoqdorligi bilan mos tushuvchi lekin ba’zi formal belgilari, so’z tartibi, son kabilalar, farq qiluvchi frazeologizmlar kiradi. Masalan. Kimnidir qo’lida o’ynamoq – to play into smb’s hands (bu yerda sonda farq bor).

Yaltiragan hamma narsa oltin emas – All is not gold that glitters (so’z tartibidagi farq).

Uchunchi guruhgaga hamma belgilari mos tushadigan ammo obrazliligi mos tushmaydigan frazeologizmlar kiradi. O’zbek tilida kaftdagidek ayon, xuddi kaftdagidek ko’rinib turibdi iborasi ingliz tilida bunday holatda ‘to spread before the eyes to be an open book” iborasi qo’llaniladi. Biz o’zbek tilida bu ko’hna dunyo, ko’hna dunyodek deb gapisak, ingliz tilida bu ibora “as old as hills” deb beriladi. Ba’zida frazeologizmlarning farqli belgisi sifatida u yoki bu iboraning muloqatda, nutqda qo’llanilishi tezligi, chastotasi namoyon ki, bu qo’llanilayotgan frazeologiyani buzulishi so’zlovchining nutqiga noodatiy yoki xatto eski moda xarakterini berishi mumkin. Bu haqda tarjimon xech qachon unutmasligi lozim .

Frazeologiya birliklarni tarjima qilish jarayonida tarjimon u turg’un yoki o’zgaruvchan so’z birikmasi bilan ishlayotganini farqlay olishi kerak. Buning uchun ulkan “frazeologizmlarning reseptiv zapasi” ega bo’lishi lozim. Shuni nazarda tutish kerakki, so’z birikmalarga, xuddi so’zlar kabi, ko’p ma’nolilik va omonimiya xodisasi xos, shunday bo’lsada ma’nolardan biri va boshqasi frazeologizm omonimi bo’lishi mumkin. Masalan. To burn one’s fingers iborasi quyidagi ma’nolarga ega; barmog’ini kuydirmoq.

1. kuyib qolmoq, xato qilmoq, adashmoq;

to be narrow in the shoulders to’g’ri ma’noga (qisqa yelkali bo’lmoq) ham ega va ma’noga ham (xazilni tushunmaslik) ega.

“Don’t mention it” “menga buni eslatma” va “arzimaydi”, “xech qisi yo’q” degan ma’nolarga ega. “to throw the book at smb.” iborasi “birortani eng uzoq muddatli qamoq jazosiga jo’natmoq ” ma’nosini bildiradi. Ammo bu ibora o’zgaruvchan so’z birikmasi bo’lib ishlatilgan kontekst ham bo’lishi mumkin. Frazeologizm ba’zida o’zgaruvchan so’z birikmasida xatto bitta artikl bilan farq qilishi mumkin, bu esa xolatga formal farqlovchi belgi bo’lib hisoblanadi. Masalan

To go to the sea – dengizga jo’namoq

To go to sea – dengizchi bo’lmoq

To draw a line – chiziq tortmoq

To draw the line – imkoniyatni chegaralamoq

Frazeologiyani yaxshigina puxta egallash uzual va okkazional frazeologizmlarni farqlash uchun ham, shuningdek “avtorlik transformatsiyasi” ga uchragan frazeologizmlarning tiklash uchun ham zarurdir.

Avtorlik o’zgaruvi qatoriga asosan quyidagi stilistik qullashlarga tegishli.

1. iboraga to’g’ri ma’no bilan semantik mos yangi komponent olib kirish. Masalan: to put the cart before the horse – hamma ishni teskarisini qilmoq [so’zma-so’z esa otni aravani orqasiga bog’lamoq], quyidagicha o’zgarishga uchragan;

‘Let’s not put the cart too far head the horse’’ (E. S. Gardner.)

2. Frazeologizmlarni alohida komponentlarini boshqa so’zlar bilan almashtirish natijasida frazeologizmning leksik grammatik tarkibini yangilash. Bunda iborani o’ziga xos deformatsiyasi yuzaga keladi, matn oson tiklanadi. Masalan. Bibliyada uchragan to have a millstone about one’s neck (yurakda og’ir tosh bilan yurmoq) iborasi S. T. Koldrij tomonidan o’zgartirilib ko’rinishga kelgan;

have an albatross about one’s neck (so’zma-so’z yelkada albatrosni olib yurmoq) S.T. Koldrijning ‘‘The ancient mariner’’ poemasida albotrosni o’ldirishi tufayli kemaga kulfat olib kelgan va bu qotillikni yelkasida osib yurish jazosiga maxkum dengizchi haqida gap boradi.

3. Frazeologizmning tarqalishi va uning komponentlarini o’zgaruvchan so’z birikmasi tarkibida qo’llash.

Bu holatda aloxida component (yoki komponentlar) iboraning butun mazmuni tashkil qiluvchi birlik birlashtiruvchi ma’nosining tashuvchisi xisoblanadi. Frazeologizmning to’liq shakli uning mazmunini tiklamasdan turib ikkinchi planga o’tmaydi. Masalan

“I ‘ve got a cold.”

“It’s in your feet.” (b. ma)

Bu dialogda so’zlovchilardan biri xastaligidan shikoyat qilsa, boshqa so’zlovchi esa bu kasallik emas, qo’rkoqlik deb aytyapti. Frazeologizm bu yerda bir component, to get cold feet – qo’rqmoq, cho’chimoq bilan berilgan. Frazeologizm to’liqligicha emas, komponentlarini qismlari saqlanishi bilan ham berilishi mumkin.

“He complained to Fleur that the book dealt with nothing but birds in the bush’’.[y. g.]. bu yerda maqolning bir qismi ishlatalgan; “a bird in the hand is worth two in the bush.” A bird in the bush bu misolda quruq va’dalar ma’nosida kelgan.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga frazeologizmlarni tarjima qilishda maksimal adekvatlikka erishish uchun tarjimon turli "tarjima ko'rinishlari"[8] dan foydalana olishi lozim.

1. Ekvivalent, ya'ni o'zbek tilida mavjud adekvat qurilma ingliz tilidagi qurilma bilan ma'no-mazmun va obraz asosi jixatidan mos keladi. Masalan:

As cold as ice - muzday sovuq; the salt of the earth -erning tuzi, swallow the pill – acchiq dorini ichmoq.

2. Analog, ya'ni o'zbek tilidagi shunday turg'un iboralarki ma'nosi ingliz tiliga adekvat lekin obraz asosi jihatidan undan qisman yoki to'liq farq qiladi. Masalan:

a drop in the bucket- dengizga tomchi,

it is rained cats and dogs- chelaklab quydi

a fly in the ointment-

3.Tasviriy tarjima ya'ni inglizcha iboraning ma'nosini erkin so'z birikmalari bilan berish yo'li tarjima qilish. Tasviriy tarjma o'zbek tilida ekvivalent va analoglar mavjud bo'limganda qo'llaniladi. Masalan :

To rob Peter to pay Paul- birovdan olib boshqani qarzini bermoq;

To burn the candle on both ends- erta tongdan tungacha ishlamoq

1. Antonomik tarjima ya'ni negativi salbiy ma'noni ijobiy qurilma yordamida berish yoki teskarisi. Masalan : to keep one's head- boshini yo'qotmaslik

To keep one's head above water- qarzga botmaslik

To keep one's pecker up- ruhi tushmaslik

2. Kalkalash metodi frazeologizmlarning obrazliligini ajratib ko'rsatish uchun yoki inglizcha ibora boshqa tarjima turlari bilan tarjima qilib bo'limganda tarjimon tomonidan ishlatiladi. Masalan:

the moon is not seen when the sun shines(maqol)- quyosh charaqlab turganda oy ko'rinxaydi.

3. Aralash tarjima. O'zbek tilidan tarjima inglizcha frazeologizmning ma'nosini to'liq berolmaganda yoki vaqt, makon kabi o'ziga xos koloritga ega bo'lganda kalkalash tarjimasi beriladi, so'ngra tasviriy tarjima beriladi va o'zbekcha analog qiyoslanadi. Masalan :carry coals to Newcastle- Nyukastlga ko'mir tashimoq ya'ni biror narsani

o'sha yerda yetarli bo'lgan joyga olib borish(yoki rus tilida ехать в Тулу с своим самоваром).

Frazeologik birliklar barcha uslubdagi adabiyotlarda keng ishlataladi. Mahoratl tarjimon u yoki bu frazeolgizmning noaniq tarjimasiga yo'l qo'ymasligi shart. Frazeologiyani bilmasdan, o'rganmasdan nutqning ifodaliligin va yorqinligini baholab bo'lmaydi, hazilni, so'z o'yinini va ba'zan shunchaki iboraning ma'nosini tushunmaslikka olib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Виноградов В.В. Лексикология и лексикография: Избр. Тр. - М.: Наука, 1986.
2. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. – М., 2001.
3. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. - М., 1990.
4. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – М., 2001
5. Прокольева С.М. Механизмы создания фразеологической образности. – М., 1996.
6. Савицкий В.М. Английская фразеология: Проблемы моделирования. – Самара, 1993.
7. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М., 1996.
8. Tursunova N. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiayatlari. So'z san'ati xalqaro jurnali. – Toshkent, 2020.
9. Sherzod Djabbarov (2021). Инглиз тилида вақтнинг концептуаллашуви. Journal of Central Asian Social Studies. <https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue02-a1>
10. Djabbarov, S. (2020). Статя ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(53). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4561